

**LOLADOSHLAR (LILIACEAE) OILASI O`SIMLIKLARINING
AMALIY AHAMIYATI VA KAMYOB TURLARI**

Mingqobilova Mavjuda

mingqobilovamavjuda0202@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola Loladoshlar(Liliaceae) oilasiga mansub turlarning amaliy ahamiyati va oilaga mansub kamyob o`simliklar haqida.

Kalit so`zlar: Liliaceae, tur, Tulipa spp, Iris spp, Tulipa greigii, gul, piyoz, Lilium martagon, Tulipa micheliana, Tulipa korolkov, Fritillaria eduardii.

Kirish. Yer yuzida o`simlik turlari juda ham ko`p va har bir tur o`simlik yer kurrasidagi tirik organizmlar uchun muhim ahamiyatga ega. O`simliklar dunyosiz hayotimizni tasavvur etib bo`lmaydi. O`simliklarni asrab-avaylashimiz va tabiiy zahiralarni ko`payishi uchun o`z hissamizni qo`shishimiz lozim. Buning uchun esa o`simlik guruhlarini yer yuzida tarqalishini, amaliy ahamiyatini va biologiyasini chuqur o`rganishimiz kerak. Xuddi shunday amaliy ahamiyati yuqori bo`lgan va tabiatda biz insonlar asrab-avaylashimiz lozim bo`lgan o`simlik oilalaridan biri bu Loladoshlar (Liliaceae) oilasi vakillaridir.

Loladoshlar oilasi (Liliaceae) - Barcha qit`alarda tarqalgan bo`lib 10 turkumga oid 470 ga yaqin turi bor. O`zbekistonda tabiiy holda 4 turkumga mansub turlari o`sadi. Bularga lola, boychechak va boshqa kiradi. Bu oila asosan ko`p yillik o`tlar shaklida bo`lgan o`simliklar oilasidir. Ushbu oila gulli o`simliklar dunyosida keng tarqalgan va ko`plab turlarni o`z ichiga oladi.

Loladoshlar oilasi o`simliklari turli xil ekologik sharoitlarda, jumladan, o`rmonlarda, cho`llarda, namlikli hududlarda va tog' yonbag'irlarida uchraydi. Ular butun dunyo bo`ylab tarqalgan, ammo ayniqsa mo`tadil va subtropik mintaqalarda ko`p uchraydi.

Loladoshlar sistematikasi

1	Bo`lim	Magnoliyatoifa (Magnoliophyta)
2	Ajdod	Lolasimonlar(Liliopsida)
3	Qabila	Lolanamolar(Liliales)
4	Oila	Loladoshlar (Liliaceae)
5	Turkum	Lola(Tulipa)
6	Tur	Qizil lola,Greyg lolasi(Tulipa greigii)

Oilaning asosiy xususiyatlari:

- Gullar: Loladoshlar oilasiga mansub o'simliklar odatda chiroyli va rang-barang gullarga ega. Gullari simmetrik va odatda besh yoki oltita gulli barglardan iborat.

- Piyoz va Tugunaklar: Ko'plab turlari piyoz yoki tugunak shaklida o'simlik qismlariga ega bo'lib, bu ularning qish davrida yoki qurg'oqchilik sharoitida tirik qolishiga yordam beradi.

- Barglar: Ular odatda uzun, tor va qilichsimon barglarga ega bo'ladi. Ba'zi turlarda barglar bazal joylashgan bo'lib, o'simlikning pastki qismida to'planadi.

- Meva: Loladoshlar oilasiga mansub o'simliklar mevasi odatda kapsula yoki yong'oq shaklida bo'ladi va ko'pincha ko'plab urug'lar saqlaydi.





Loladoshlar (Liliaceae) oilasi o'simliklar olamida muhim o'rin tutadi va turli amaliy ahamiyatlarga ega. Ushbu oilaga mansub o'simliklar quyidagi sohalarda keng qo'llaniladi:

Bezak o'simliklari: Lolalar (*Tulipa* spp.), irislar (*Iris* spp.) va boshqa ko'plab loladoshlar oilasiga kiruvchi o'simliklar bog'dorchilik va manzarali dizaynda bezak maqsadida ishlatiladi.

Ekologik ahamiyat: Loladoshlar oilasiga mansub o'simliklar tabiiy ekosistemalarning muhim qismi hisoblanadi va tuproq eroziyasini kamaytirish, suvni saqlab turish va hasharotlarni jalb qilish kabi ekologik jarayonlarda muhim rol o'ynaydi.

Asalarichilik: Ayrim loladoshlar oilasiga kiruvchi o'simliklar, masalan, Lilium martagon asalari uchun ajoyib nektar manbai hisoblanadi. Shuningdek, oila vakillari alkaloidlarga boy turlar hisoblanadi.

Loladoshlar oilasiga mansub Qizil kitobga kiritilgan kamyob turlar.

1	Dilband lola—<i>Tulipa micheliana</i>.	
2	Korolkov lolasi—<i>Tulipa korolkov</i>.	
3	Xolmon isirg'aguli—<i>Fritillaria eduardii</i>	
4	Oritiyasimon lola - <i>Tulipa orithyioides</i>	

1. Dilband lola—Tulipa micheliana.

Kamyoblik darajasi 2. G'arbiy Pomir—Oloydagi kamayib ketgan tur.

Hayotiy shakli—bo'yi 20-30 sm oralig'idagi ko'p yillik piyozli o't. Botanik ta'rifi va tarqalishi—piyozi tuxumsimon, qora-qo'ng'ir charmsimon qobig'ining ichki tomoni yotiq tuklar bilan qoplangan.

Barglari 3-4 ta, yo'l-yo'l binafsha dog'li. Guli yakka, yirik, diametri 10 sm gacha bo'lib, qizil rangdan to'q pushti ranggacha, o'ziga xos qadaqsimon shaklda. Gulining tubi qora, sariq gardishli, ba'zan gardishsiz. Changchili iplari qora, changdonlari binafsha rangli, ba'zan sariq.

Mart-aprel oylarida gullab, may-iyunda mevasi yetiladi. Ko'xitang, Hisor tizmalarida (Dehqonobod atroflari) tarqalgan. Tog' oldi tekisliklari va adirlardagi toshli va soz tuproqli yonbag'irlarida o'sadi. Kam, yakka holda uchraydi. Urug'idan va piyozidan ko'payadi.

O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari. O'simlik soni va arealining o'zgarish sabablari—Chorva mollari boqilishi va o'simlik gulining terib olinishi sababli kamaymoqda.

2. Korolkov lolasi—Tulipa korolkov.

Kamyoblik darajasi 2. Janubiy-g'arbiy Tyanshan va Pomir-Oloydagi areali ajralgan, kamyob o'simlik. Hayotiy shakli—bo'yi 10-20 sm ga yetadigan ko'p yillik, piyozli o't.

Botanik ta'rifi va tarqalishi—piyozi tuxumsimon, diametri 2,5 sm, qob'ig'I ichki tomonining yuqori qismi sertuk. Barglari 3 ta, egri-bugri. Guli yakka, qizil, tubi qora. Changchi iplarining pastki qismi qora, yuqori qismi esa qizil. Ba'zan changchi iplari qora yoki qizil.

Changdoni sariq. Mart-aprel oylarida gullab, iyun-iyul oylarida mevasi yetiladi. Kuxitang, Boysun, Bobotog'da, Xisor tizmalarida tarqalgan. Qozog'iston va Tojikistonda ham uchraydi. Qum-shag'alli hamda toshli yonbag'irlarda va olajinsli yerlarda o'sadi.

Tabiatda to'p-to'p bo'lib va yakka-yakka holda tarqalgan. Urug'idan va piyozidan ko'payadi.

3.Xolmon isirg'aguli—Fritillaria eduardii.

Kamyoblik darajasi 2. O'zbekistonda kamayib borayotgan va areali ajralgan o'simlik. Hayotiy shakli-- poyasi bargli 40-80, ba'zan 150 sm ga yetadigan piyozli, ko'p yillik o't. Botanik tarifi va tarqalishi – barglari yaltiroq, yashil, pastki barglari keng cho'ziq, ba'zan poyada halqa hosil qilib joylashadi. Poyaning eng yuqori qismdagilari nashtarsimon,halqa shaklida o'rnashgan.

Gullari qo'ng'iroqsimon, pastga qarab osilib turadi,qizg'ish,qirmizi-qo'ng'ir rangli,2-8 tadan bo'lib,soyabonsimon to'pgul hosil qiladi.

Mevasi yuqoriga qarab tik turuvchi,qisqa bandli,eni 4-5 sm,ensiz qanotchali qutichaga o'xshydi. Aprelda gullab,mevasi may oyida yetiladi.Ajoyib,xushmanzara o'simlik.

4. Oritiyasimon lola - Tulipa orithyioides

Kamyoblik darajas 1. G'arbiy Pomir—Oloydagi yo'qolish arafasida turgan kamyob,endem o'simlik.Hayotiy shakli—bo'yi 7-12 sm ga yetadigan ko'p yillik, piyozli o't. Botanik ta'rifi va tarqalishi—piyozi tuxumsimon,diametri 1,5 sm, qobig'i qog'ozsimon,qo'ng'ir-kulrang,ichki to'rsimon momiq tukli.

Barglari 2 ta,yaqin joylashgan,egri-bugri. Gullari yakka,oq,tubi sariq.CHangchi iplari sariq,ostki qismi uzun kipriksimon tukli.CHangdoni xira binafsha rangli. May-iyun oylarida gullab,iyul-avgustda mevasi yetilad.

Hisor tizmasi (Cho'lbair tog'i va To'palon daryosi havzasi)da tarqalgan.Dengiz satxidan 2500-3000 m balandlikda tosh-shag'alli yonbag'irlarda o'sadi.Tabiatda yakka-yakka holda tarqalgan.Urug'idan va piyozidan ko'payadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak loladoshlar oilasiga mansub turlar o'simliklarning genetik xilma-xilligini saqlash, ilmiy tadqiqotlar va ta'lim sohasida ham muhim ahamiyatga ega.

Ular genetik resurslar sifatida biotexnologiya va selektsiya ishlarida ham qo'llanilishi mumkin. Bularning barchasi loladoshlar oilasining o'simliklar olamida va inson hayotida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. "Oʻsimliklar sistematikasi (Yuksak oʻsimliklar)" X.Haydarov, Y.Tashpulatov, X.Jalov, I.Mukumov, Samarqand-2019.
2. <https://byjus.com/neet/floral-formula-of-liliaceae/>
3. https://www.reed.edu/biology/courses/bio332/PlantFamily/family_info/Liliaceae.html
4. <https://www.sciencedirect.com/topics/agricultural-and-biologicalsciences/liliaceae>
5. <https://www.inaturalist.org/taxa/47328-Liliaceae>
6. https://www.academia.edu/112557537/Ozbekiston_Respublikasi_qizil_kitobiga_kiritilgan_loladoshlar_liliaceae_oilasini_organish
7. <https://interonconf.org/index.php/pol/article/download/1064/984/972>
8. <https://www.britannica.com/plant/Liliaceae>
9. <https://zenodo.org/records/8010622>
10. www.wikipedia.uz